

СЕМЬЯ – ОСНОВА ВОСПИТАНИЯ ГАРМОНИЧНО РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ

Бобомурадова Н.Ж.

Старший преподаватель кафедры экологии и географии БухГУ

Аннотация: в статье показано значение и роль семейного воспитания в процессе формирования личности и укрепления здоровья гармонично развитого поколения

Ключевые слова: образование, общество, семья, нравственность, здоровье, духовность, развитие.

OILA-BARKAMOL AVLOD TARBIYASI TAYANCHI

Bobomuradova N.J.

BuxDU ekologiya va geografiya kafedrasida katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: maqolada barkamol avlod salomatligini mustahkamlash va voyaga yetkazish jarayonida oila tarbiyasining ahamiyati hamda o'rni ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, jamiyat, oila, axloq, salomatlik, ma'naviyat, rivojlanish,

FAMILY – THE BASIS OF EDUCATION OF A HARMONIOUSLY DEVELOPED GENERATION

Bobomuradova N.Zh.

**Senior Lecturer of the Department of Ecology and Geography of
Bukhara State University**

Abstract: the article shows the importance and role of family education in the process of personality formation and strengthening the health of a harmoniously developed generation

Keywords: education, society, family, morality, health, spirituality, development.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng o'ziga xos taraqqiyot va rivojlanish yo'lini bosib o'tmoqda va bugungi kunda jamiyatni ijtimoiy-ma'naviy

yuksaltirish, oilaviy munosabatlarni jamiyatda tutgan o'rnini, mavqeini mustahkamlash, sog'lom avlod tarbiyasiga ahamiyat berish asosiy vazifalardan bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy munosabatlar jamiyatning tuzilishini vujudga keltiradi. Ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy hayotning, ayniqsa, oilaviy hayotni mohiyatini ifodalaydi. Oila esa odamlarning iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir.

Oilaviy birlikda shaxslar o'rtasida axloqiy, psixologik, jismoniy va xo'jalik-maishiy aloqalar sodir bo'lib, ular hayotda va maqsadlarda umumiylikni vujudga keltiradi.

Barkamol avlodni tarbiyalash-buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish demakdir. Barkamol avlodni tarbiyalash ikki jihat – yosh avlodni jismonan sog'lom etib tarbiyalash va ularni ma'naviy barkamol etib voyaga yetkazishni o'zida mujassamlashtiradi. Inson ma'naviy barkamol bo'lishi uchun, eng avvalo, jismonan sog'lom bo'lishi lozim. Bu oddiy hol, ammo u jamiyatimiz rivoji – kelajagini ta'minlovchi omildir.

Insonning salomatligi ijtimoiy qadriyatlar orasida eng muhimdir. Salomatlik muammosi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ko'rsatkichlarini biri bo'lib, bu ekologik-iqtisodiy va ijtimoiy-gigenik farovonlikning o'ziga xosligi, fan-texnika taraqqiyoti hamda aholi madaniyatidagi darajasi bilan o'zaro uzviy bog'liqdir.

Inson ma'naviy, tabiiy va ijtimoiy tirik organizm bo'lib merosiy va hayotiy o'zlashtirib olingan xususiyatlar birligini bildiradi. Inson hayotida biologik qonuniyatlarning namoyon bo'lishi uning jismoniy kamol topishi uchun asos bo'ladi.

Inson hayotida biologik qonuniyatlarning namoyon bo'lishi ijtimoiy xarakterga ega. Insonning hayoti umumiy tizimga kiruvchi biologik va ijtimoiy zamin bilan bog'langan. Demak, inson tabiiy biologik vujud bo'lib, u o'zining

kelib chiqishi, organizmning fiziologik xususiyatlariga ko'ra tabiatning oliy mahsulidir.

Inson ijtimoiy vazifalarni bajarishi, farzandlarini sog'lom bo'lishi, sog'lom turmush tarziga ega bo'lishi, farzandlarining moddiy-ma'naviy kamoloti uchun sharoit yaratishi kerak.

Oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirmasdan turib bunga erishib bo'lmaydi. Umumlashtirib aytganda, sog'lom ota-onadagina sog'lom farzand tug'iladi. Sog'lom avlod dastlab oilada shakllanadi. Barkamol avlod tarbiyasi oiladan boshlanadi.

Oila sog'lom avlodni voyaga yetkazuvchi muhim omil hisoblanadi. Demak inson salomat yashashi uchun boshqa omillar bilan birga sog'lom oilaviy muhit ham lozim. Bunday muhit oila a'zolarining bir-birini tushunishga, oilaviy munosabatlarning to'g'ri o'rnatilishiga bog'liq bo'ladi.

Shunday ekan, barkamol avlod uchun tarbiyaviy muhitni yaratish ota-onaning bosh vazifasidir. Mustaqil O'zbekiston ijtimoiy hayotidagi tub o'zgarishlar ham oilada yangilanish, o'zgarishni amalga oshirishni taqazo etadi. Shu maqsadda, mamlakatimizda "Sog'lom bola" dasturi, birinchi navbatda, oilalarga, oiladagi muhitni sog'lomlashtirishga, jismonan sog'lom, ma'naviy boy va axloqan pok yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgandir. Tabiiyki, sog'lom oilalar butun jamiyatning sihat- salomatligini belgilaydi.

Yangi huquqiy-demokratik, insonparvar jamiyatni qurish, islohotlarning taqdiri oilalarni mustahkamligiga, sog'lomligiga bog'liq. Sog'lom oila – bu jismoniy sog'lom, ma'naviy boy barkamol farzandlar tarbiyalaydigan jamiyatimiz o'zagidir.

Mamlakatimizning ertangi kuni, uning muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan avlodni sog'lom bo'lishiga, onalik va bolalikning qanday muhofaza qilinishiga bog'liq va bu belgilovchi ahamiyatga ega. Bu o'z navbatida Vatanimizning kelajagi bo'lgan farzandlarimizning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni taqazo etadi. Bu

ko‘rilayotgan chora-tadbirlar yurtimizda barkamol avlod tarbiyasiga berilayotgan davlat e‘tiboridan dalolat beradi.

Salomatlik ijtimoiy qadriyatlar orasida ustivor o‘rinni egallaydi. Chunki, u ishlab chiqarish kuchlarini erkin, unumli mehnat qilishni ta‘minlaydi, shu bilan birga umrni uzaytiradi, o‘limni kamaytiradi hamda kelajak avlodni salomatligini ham ta‘minlaydi, nasl tozaligiga sabab bo‘ladi. Bu holat o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyotini tezlashiradi.

Har bir mamlakat aholisi salomat bo‘lishi uchun obyektiv sharoit – moddiy ta‘minlanganlik va tabiatning tozaligi zarur bo‘lsa, subyektiv omil – sog‘lom turmush-tarzi, tibbiy ongning shakllanganligi va yoshlarni hayotga tayyorlab borishning takomillashgani asosiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Demak, oilalarni mustahkamlash, oilada sog‘lom avlodni voyaga yetakzish ham, birinchi navbatda jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga va uning barqarorligiga bog‘liqdir.

Jismonan sog‘lom va har tomonlama ma‘naviy boy avlodni tarbiyalash, kamol toptirish eng avvalo oiladan boshlanadi. Yuksak axloqiylik, insoniy fazilatlar, vatanparvarlik, Vatan bilan g‘ururlanish va unga muhabbat, uning baxt saodati, ravnaqi uchun mas‘uliyatni tarbiyalash, buzg‘unchi g‘oyalarga, yomon odob-axloqqa qarshi nafrat ruhi dastavval oilada kurtak otadi.

Oilada shakllanagan odob-axloq, xulq-atvor keyinchalik mahallada, mehnat jamoalarida, o‘quv muassasalarida rivojlanib, shaxsning ongi va qalbiga singib boradi

Adabiyotlar:

1. Мунавваров А. Оила педагогикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1994.
2. Ҳасанбоева О ва бошқалар. Оила педагогикаси. – Т.: Алоқачи, 2007
3. Abdullaev K., Juraev B., Khabibova G. Food quality and safety control as an important factor of physical development //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 460. – С. 11001.

4. Абдуллаев К. Ф., Бобомуродова Н. Д. Didaktik talim vositalari talim jarayoni samaradorligini taminlash omili sifatida://Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 81-86.